

## 2021- yilning yanvar-fevral oylarida Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi


Iqtisodiyotda xizmatlar sohasi o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabilar tashkil etadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

### 2021- yilning yanvar-fevral oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

#### Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan  
bozor xizmatlari  
hajmi



Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan  
bozor xizmatlari  
hajmining o'sish  
sur'atlari

#### Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'atlari

Namanagan viloyatidada xizmatlar sohasining rivojlanishi


**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilning yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 572,5 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 184,9 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,8 % ni tashkil etdi.

#### Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi



**Xizmatlar** – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdarligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan  
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari  
(2021 -yilning yanvar-fevral oylarida)**

|  | Hajmi,<br>mlrd. so'm | O'tgan yilga<br>nisbatan o'sish<br>sur'ati, % da |
|--|----------------------|--|
| <b>Xizmatlar - jami</b>  | <b>1 572,5</b>       | <b>102,8</b>                                     |
| <i>shu jumladan:</i>   |                      |  |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari  | 85,8                 | 104,4  |
| Moliyaviy xizmatlar  | 265,8                | 118,6  |
| Transport xizmatlari   | 287,7                | 97,6   |
| <i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>  | <i>263,4</i>         | <i>101,6</i>                                     |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari  | 38,9                 | 112,6  |
| Savdo xizmatlari   | 489,6                | 94,0   |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar  | 41,5                 | 100,5  |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar  | 71,7                 | 122,5  |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar   | 36,7                 | 101,7  |
| Ijara xizmatlari   | 45,4                 | 156,9  |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash<br>bo'yicha xizmatlar                             | 43,6                 | 101,2  |
| Shaxsiy xizmatlar  | 98,9                 | 97,4   |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari,<br>texnik sinovlar va tahlil sohasidagi<br>xizmatlar | 26,7                 | 96,7   |
| Boshqa xizmatlar   | 40,2                 | 100,2  |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2021-yilning yanvar-fevral oylarida ularning ulushi 31,1 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga,

Namanagan viloyatidada xizmatlar sohasining rivojlanishi


yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (18,3 %), moliyaviy xizmatlar (16,9 %), boshqa shaxsiy xizmatlar (6,3 %) qayd etildi.



Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'Imagan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,7 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'Imagan ulush Sog'liqni saqlash soxasidagi xizmatlar - 2,3 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari - 2,5 % ga to'g'ri keldi.

Yuqori o'sish savdo xizmatlari (31,1 %), transport xizmatlari (18,3 %), shuningdek moliyaviy xizmatlari (16,9 %)da qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

**Transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi**



Avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 91,6 % ni tashkil etdi.

Omborxona va yordamchi transport xizmatlarining hajmi 8,1 % ni tashkil etdi.


Pochta va kuryerlik xizmatlarning ulushi 0,3 % ni qayd etdi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtaсидаги aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoqa bo'linadi.

2021-yilning yanvar-fevral oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 31,1 % ni tashkil etib, bu 489,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

## **Savdo xizmatlari tarkibi, % da (2021-yilning yanvar-fevral oylarida)**



Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajimining 80,6 % iqa to'q'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 14,1 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning

ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi 5,3 % ni tashkil etdi.

### Moliyaviy xizmatlar (2021- yilning yanvar-fevral oylarida)

**Moliyaviy xizmatlar hajmi 265,8 mlrd. so'mni - tashkil etdi.**


**Taqqoslash uchun:** 2020-yil yanvar-fevral oylarining hajmi 217,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi.



**Ularning umumiyligi hajmidagi ulushi 16,9 % ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2020-yil yanvar-fevral oylarida ularning ulushi 15,7 % ni tashkil etdi.

**O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini 22,1 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.**




**Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 115,7 % ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-fevral oylarida ularning o'sish sur'ati 138,1 % ga yetgan.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Namanagan viloyatidada xizmatlar sohasining rivojlanishi

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratish uchun innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan raqamli banklar va ularning bo'linmalarining faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.



2021 yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 265,8 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 118,6 % ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari (92,8 %) tashkil etadi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2021-yil yanvar-fevral oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmat-larining hajmi 85,8 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati 104,4 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmdagi ulushi 5,5 % ni tashkil etdi.

Namanagan viloyatidada xizmatlar sohasining rivojlanishi

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi



Aloqa va axborotlash-tirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekom-munikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va bosh-qalar) egallab, 96,9 % ni tashkil etdi. Nashriyot xizmatlari aloqa va axborotlashtirish xizmatlarinung 2,2 % ni tashkil etadi. Axborot sohasidagi xizmatlar umumiyoq aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,4 % ni tashkil etadi. Boshqa aloqa xizmatlari 0,2 % ni tashkil etadi. Kompyuter dasturlashtirish bo'yicha xizmatlar 0,3 % ni tashkil etadi.

### Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2021-yilning yanvar-fevral oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 71,7 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyoq hajmidagi ulushi 4,6 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 122,5 % ni tashkil etdi.




### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2021-yil yanvar-fevral oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 112,6 % ni tashkil etdi,

Namanagan viloyatidada xizmatlar sohasining rivojlanishi


ularning hajmi esa 38,9 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan.Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi atigi 2,5 % ni tashkil etdi.



2020-yil yanvar-fevral oyiga nisbatan turar joy va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmi 9,5 mlrd. so‘mga ko‘paydi.

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta‘minlash** bo‘yicha xizmatlar  
- oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo‘yicha qo‘yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o‘z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

### Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarkibi (2021-yilning yanvar-fevral oylarida)



Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta‘minlash bo‘yicha xizmatlarning ulushi 81,9 % bilan ustunlik qiladi.

Namanagan viloyatidada xizmatlar sohasining rivojlanishi

2021-yilning yanvar-fevral oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 18,1 % ni tashkil etdi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

### **Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2021-yilning yanvar-fevral oylarida)**

2021-yilning yanvar-fevral oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 36,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,7 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar umumiylajmiда ularning ulushi 2,3 % ni tashkil qildi.



Xizmatlar jami

• 36,7 mlrd.  
so'm

O'tgan yilga  
nisbatan o'sish  
sur'ati

• 101,7 %

Xizmatlarning  
jami hajmdagi  
ulishi

• 2,3 %

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2021-yilning yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 553,9 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,7 % ni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmi – 553,9 ming so'm**

**O'sish sur'ati, 2020- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan - 100,7 %**

**Hajmning o'sishi, 2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan – 55,1 ming so'mga**

Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar soxasi statistikasi bo'limi

(69) 211-72-00

Namanagan viloyatidada xizmatlar sohasining rivojlanishi